

BUYRAK ANATOMIYASI , TOPOGRAFIYASI VA BUYRAKDA KUZATILADIGAN PATOLOGIK HOLATLAR

Uzoqov Jafarbek Erkinjon o'g'li,

1TTA Davolash ishi fakulteti 1-kurs talabasi,

rmi086237@gmail.ru

Qurbonov Sevinchbek Birodar o'g'li,

2TTA Davolash ishi fakulteti 1-kurs talabasi

qislom86@gmail.com

Allayorov Akmalbek Mansurbek o'g'li,

3TTA Davolash ishi fakulteti 1-kurs talabasi

allayorovakmalbek23@gmail.com

Safaraliyev Javohir O'tkir o'g'li

4 TDSI stomatologiya fakulteti 1-kurs talabasi

javohirsafaraliyev291@gmail.com

Iskandarov Laziz Ulug'bek o'g'li

5TTA Davolash ishi fakulteti 1-kurs talabasi


iskandarovlazizbek647@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8001147>

Annotatsiya Tadqiqot maqsadi: Buyraklarni organizmda joylashishini chuqur o'rganish va jarrohlik amaliyotlarida shifokor yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarni kamaytirish va odamdagi postembrional buyrak patologiyalarini o'rganish. Tadqiqot material va metodlari: Odam organizmda buyrak topografiyasini o'rgangan o'zbek va boshqa davlat anatomlari adabiyotlaridan keng foydalanildi. Buyrak jarrohlik amaliyotida buyrak anatomiyasining muhim qismlari haqida ma'lumot to'plandi. Natijalar tahlili va muhokamasi: Yig'ilgan ma'lumotlar asosida ilmiy rahbarlar tomonidan tushintirish ishlari olib borildi. Odam organizmda uchrash ehtimolligi bo'lgan postembriologik buyrak patologiyalarining oldini olishga qaratilgan profilaktika holatlari o'rganildi.

Kalit so'zlar : Buyrak topografiyasi, postembrional buyrak patologiyasi, shifokor xatosi, profilaktika holatlari. Dolzarbligi: Buyrak (ren, grekcha nephros) siydik ajratib chiqaruvchi juft a'zo. U loviyasimon shaklga ega bo'lib, katta odamda uzunligi 10-12 sm, kengligi 5-6 sm, qalinligi 4 sm. Og'irligi 120 -200 g. U to'q qizil rangli, yuzasi katta odamda silliq. Buyrakning oldingi yuzasi (facies anterior) qavariq, orqa yuzasi (facies posterior) yassiroq. Uning yuqori uchi (extremitas superior), pastki uchi (extremitas inferior), qavariq lateral qirrasasi (margo lateralis), botiq medial qirrasasi (margo medialis) tafovut qilinadi. Medial qirrasining o'rtasida oldingi va orqa yuzalari bilan chegaralangan botiqlik, buyrak darvozasi (hilus renalis) joylashgan. Bu yerdan buyrak ichiga arteriya va nervlar kiradi, undan esa siydik yo'li, vena va limfa tomirlar chiqadi. Buyrak darvozasi ichkariga botib kirgan buyrak bo'shlig'iga (sinus renalis) o'tib ketadi. Buyrak bel sohasida umurtqa pog'onasining ikki yon tomonida qorin bo'shlig'ining orqa devorida qorin pardaning orqasida joylashgan. Buyraklarning yuqori uchlari bir-biriga yaqin joylashsa, pastki uchlari uzoqroq turadi. Chap buyrak o'ngiga nisbatan yuqoriroq turadi. Chap buyrakni yuqori uchi XI ko'krak umurtqasini o'rtasida, pastki uchi III bel umurtqasining yuqorigi chekkasi sohasida turadi. O'ng buyrakning yuqori uchi XI ko'krak umurtqasining pastki chekkasi sohasida, pastki uchi esa III bel umurtqasining tanasini o'rtasi sohasida turadi. XII qovurg'a chap buyrakni orqa yuzasini o'rtasidan, o'ng buyrakni esa yuqori uchidan kesib o'tadi. Buyrakning orqa yuzasi pardalari bilan diafragmaga, belning kvadrat mushagi, qorinning ko'ndalang mushagi va katta bel mushagiga tegib turadi. Uning yuqori uchida buyrak usti bezi joylashgan. Buyrakning oldingi yuzasi qorinparda bilan qoplangan

bo'lib, ichki a'zolarga tegib turadi. O'ng buyrakning oldingi yuzasini yuqori uchdan ikki qismiga jigar tegib tursa, pastki uchdan biriga o'ng yo'g'on ichak burilish burchagi tegib turadi. Uning medial chekkasiga o'n ikki barmoqli ichakning tushuvchi qismi tegib turadi. Chap buyrakni oldingi yuzasini yuqori uchdan biriga me'da, o'rta qismiga me'da osti bezi, pastki qismiga och ichak qovuzloqlari tegib turadi. Uning lateral chekkasi taloqqa va chap chambar ichak burilish burchagiga tegib turadi. Buyrakni kesib ko'rganimizda (92-rasm) u ikki xil moddadan: tashqi 0,4-0,7 sm qalinlikdagi po'stloq va 2-2,5 sm qalinlikdagi mag'iz moddadan iborat. Buyrakning po'stloq moddasi (cortex renalis) qizg'ish rangda. U buyrakni tashqi qavatini hosil qilib qolmay, mag'iz qismi orasiga botib kirib buyrak ustunlarini (columna renalis) hosil qiladi. Buyrakning po'stloq qismi bir-biri bilan almashadigan yorug' va qoramtir qismlardan iborat. Yorug' qismi konus shaklida bo'lib, mag'iz qismidan po'stloqqa o'tayotgan nur ko'rinishidagi nurli qismni (pars radiata) hosil qiluvchi buyrakning to'g'ri naychalari va yig'uvchi naychalarning boshlang'ich qismlaridan iborat. Qoramtir qismida esa buyrak tanachalari va buralma naychalar joylashib o'ralgan qism (pars convoluta) deb ataladi. Buyrakning mag'iz qismi (medulla renalis) 10-15 ta buyrak piramidalaridan (pyramides renalis) iborat. Har bir piramidaning asosi (basis pyramidalis) po'stloq moddaga qaragan, uchi buyrak so'rg'ichini (papilla renalis) hosil qilib, buyrak bo'shlig'iga qaragan. Piramida nefronni to'g'ri naychalari va yig'uvchi naychalardan iborat bo'lib, ular o'zaro qo'shib buyrak so'rg'ichi sohasida 15-20 ta qisqa so'rg'ich naychalarini (ductuli papillares) hosil qiladi. Ular buyrak so'rg'ichi sohasi yuzasiga so'rg'ichsimon teshiklar (foramina papillaria) bo'lib ochiladi. Bu teshiklar hisobiga buyrak so'rg'ichi uchi g'alvirsimon ko'rinishga ega bo'lib, g'alvirsimon maydoncha (area cribrosa) deyiladi. Buyrak tuzilishi va qon tomirlarining tarqalishiga qarab 2-3 ta buyrak bo'lagini o'z ichiga oladigan beshta: yuqorigi segment (segmentum superius), oldingi yuzaning yuqorigi segmenti (segmentum anterius superius), oldingi yuzaning pastki segmenti (segmentum anterius inferius), pastki segment (segmentum inferius) va orqa yuzadagi segmentlarga (segmentum posterius) bo'linadi. Buyrak bo'lagi (lobus renalis) buyrak ustunida yotgan bo'laklararo arteriya va vena bilan chegaralangan buyrak piramidasi va unga yondoshgan po'stloq moddasidan iborat. Har bir buyrak bo'lagi po'stloq qismida 600 ga yaqin po'stloq bo'lakchasini (lobulus corticalis) o'z ichiga oladi. Po'stloq bo'lakchasi ikkita bo'lakchalararo arteriya va vena bilan chegaralangan bitta nurli va o'ralgan qismlarni o'z ichiga oladi. Buyrak tashqi tomondan uch qavat parda: fibroz, yog' moddadan iborat va biriktiruvchi to'qimali parda bilan o'ralgan. Fibroz parda (capsula fibrosa) buyrak to'qimasidan oson ajraydi. Fibroz pardani ustidan yaxshi rivojlangan yog' moddadan iborat parda (capsula adiposa) qoplagan bo'lib, buyrak darvozasi orqali uning bo'shlig'iga kiradi. Bu parda buyrakning orqa tomonida yaxshi rivojlangan bo'lib, o'ziga xos yog' kapillyarlarga bo'linib, qon tomir kapillyarlaridan iborat koptokchani (glomerulus) hosil qiladi. Koptokchadan diametri olib keluvchi arterioladan kichik bo'lgan olib ketuvchi arteriola (arteriola glomerularis efferens) chiqadi. Koptokchadan chiqqanidan keyin olib ketuvchi koptokcha arteriolasi kapillyarlarga bo'linib, buyrak naychalarini o'raydi va ulardan vena kapillyarlari hosil bo'ladi. yostiqla-buyrak orqa yog' tanasini (corpus adiposum pararenale) hosil qiladi. Yog' moddadan iborat pardani ustidan qoplagan buyrak fastsiyasi (fascia renalis) qorining orqa devoridagi mushak fastsiyasining davomi hisoblanadi.



Врожденная гиперплазия коры надпочечников: симптомы и лечение
 tvojbolit.ru

U buyrakning tashqi chekkasida ikki varaqqa ajralib buyrakni oldingi va orqa tamonidan o'rab oladi. Bu varaqlar buyrakning ichki qirrasida o'zaro birikmaydi. Fastsiyaning oldingi varag'i buyrak qon tomirlarini, qorin aortasi va pastki kavak venani old tomondan qoplab, qarama-qarshi tomondagi shunday fatsiya bilan qo'shiladi. Buyrak fastsiyasining orqa varag'i o'ng va chap tomonda umurtqa pog'onasining yon tomonlariga birikadi. Buyrak fastsiyasining olgingi va orqa varaqlari buyrakning yuqori uchi sohasida o'zaro qo'shiladi, pastki uchida esa birikmaydi. Buyrak fastsiyasi yog' kapsulani teshib o'tuvchi biriktiruvchi to'qima tolalari vositasida buyrakning fibroz kapsulasiga birikadi. Buyrakning qon tomirlari. Buyrak qon tomirlaridan sutka davomida 1500-1800 litr qon o'tadi. Buyrak arteriyasi buyrak darvozasida oldingi va orqa tarmoqqa bo'linadi. Oldingi tarmoq buyrak jomini oldidan o'tib, to'rtta segment: yuqorigi segmentga (a.segmenti superioris), olgingi yuzaning yuqorigi segmentiga (a.segmenti anterioris superioris), oldingi yuzaning pastki segmentiga (a.segmenti anterioris inferioris), pastki segmentga (a.segmenti inferioris) arteriyasiga bo'linadi. Orqa tarmoq buyrak jomini orqasidan orqa segmentga (a.segmenti posterioris) bo'lib tarqaladi. Segment arteriyalari yonma-yon piramidalar o'rtasida joylashgan bo'laklararo arteriyalarga (aa. interlobares) bo'linadi. Po'stloq va mag'iz qavatlar chegarasida bo'laklararo arteriyalar piramidalar asosini ustida yotgan ravoqsimon arteriyalarga (aa. arcuatae) bo'linadi. Ravoqsimon arteriyalardan po'stloq moddasiga ko'p sonli bo'lakchalararo arteriyalar (aa. interlobularis) chiqadi. Bo'lakchalararo arteriyalardan chiqqan olib keluvchi arteriola (arteriola glomerularis afferens) Olib ketuvchi arteriolaning o'lchami kichik bo'lgani uchun ko'ptokcha kapillyarlarida bosim oshishi natijasida qondan suyuqlik ajralib Shumlyanskiy-Boumen kapsulasiga o'tadi va unda bir sutkada (150-180 litr) birlamchi siydik hosil bo'ladi. Buyrak ko'ptokchasida arteriolani kapillyarga bo'linib undan arteriola hosil bo'lishini buyrakning ajoyib qon tomir to'ri (rete mirabili) deb ataladi. Shumlyanskiy-Boumen kapsulasida hosil bo'lgan birlamchi siydik nefron naychalaridan o'tganida undagi suyuqlik naychalar devoridagi vena kapillyarlariga qayta so'riladi va qo'shuvchi naychada (1-2 litr) ikkilamchi siydik hosil bo'ladi. Buyrakning mag'iz moddasida ravoqsimon va bo'laklararo arteriyalardan to'g'ri arteriolalar (arteriolae rectae) chiqib, buyrak piramidasini qon bilan ta'minlaydi. Po'stloq moddaning kapillyar to'ridan hosil bo'lgan venullalar o'zaro qo'shilib bo'lakchalararo venalarni (vv. interlobulares) hosil qiladi. Ularning qo'shilishidan hosil

bo'lgan ravoqsimon venalar (vv.arquatae) bo'laklararo venalarga (vv. interlabares) o'tib ketadi. Ular esa buyrak bo'shlig'ida o'zaro qo'shilib, buyrak venasini hosil qiluvchi yirik venalarga aylanadi. Obzor rentgenogrammada buyrak soyasining quyuqligi atrofdagi to'qimalarnikiga o'xshaydi, ammo uni o'ragan yog' pardasi rentgenogrammada buyrak atrofida uning chegarasini aniqlovchi yorug' hoshiyani hosil qiladi. Yosh bolada yog' pardasi yupqa bo'lgani uchun ularda buyrakni aniqlash qiyinroq. Buyrakning medial chegarasi bel yonbosh mushagiga yaqin bo'lib, uning chekkasiga parallel yo'naladi va I bel umurtqasi ko'ndalang o'simtasi sohasiga biroz kiradi. Qalin yog' parda bo'lganda undan biroz chekkaroqda turadi. Buyrak chegarasi rentgenogrammada tekis, ravoqsimon chiziq shaklida. Chap buyrakning yuqori chegarasi XI ko'krak umurtqasi tanasining o'rtasi sohasida, o'nginiki esa uning pastki chekkasi sohasida joylashadi. O'ng buyrakning darvozasi II bel umurtqasi sohasida joylashsa, chap buyrakniki 1-2 sm yuqorida turadi. Rentgenogrammada buyrak ikki turda: keng va tor ko'rinishda uchraydi. Keng turida buyrak loviyasimon shaklda bo'lib, lateral yuza katta egrilik, medial yuzasi esa darvozaning joylashishiga mos katta botiqlik hosil qiladi. Bu turdagi buyraklar erkaklarda va semiz odamlarda uchraydi. Tor shaklli buyrakda medial chegarasi yo'q bo'lib, lateral egriligi kichik bo'ladi. Bu shakl asteniklar va ayollarda uchraydi. Buyrak jomi (pelvis renalis) I-II bel umurtqalari sohasida aniqlanadi. O'ng buyrak jomi chapidan pastroq yotadi. XII qovurg'a o'ng buyrak jomini yuqori uchdan birida kesib o'tsa, chap buyrak jomini o'rtasidan o'tadi. Buyrak jomi uch xil: ampula, shoxlangan va ular o'rtasidagi o'tuvchi shakllarda uchraydi. Yangi tug'ilgan bola buyragi nisbatan katta va yumaloq shaklga ega. U bo'laklardan iborat bo'lib, po'stloq qavati yaxshi rivojlanmagani uchun yuzasi g'adir-budur (2-rasm). Uning o'rtacha uzunligi 4,2 sm, kengligi qutblar sohasida 2,2 sm, og'irligi 12 g. Ularda po'stloq qavati qalinligi o'rtacha 2 mm, mag'iz qavati 8 mm. Yangi tug'ilgan bola buyragini yuqori uchi XII ko'krak umurtqasini yuqori qirrasida joylashsa, pastki uchi IV bel umurtqasini pastki qirrasida joylashadi. Yog' pardasi yo'q, fibroz pardasi yupqa. Yog' pardasi yaxshi taraqqiy etmagani uchun buyrak harakatchan. Emizikli davrda buyrak o'lchamlari 1,5 marotaba kattalashib og'irligi 37 g yetadi. Bu davrda buyrak ko'ptokchalarini ko'pligi va bir-biriga yaqin joylashganiga qaramay po'stloq qavati yaxshi takomillashmagan, buyrak naychalari yaxshi rivojlanmagan.

Bola hayotining birinchi yetti yilida buyrak bo'yiga va eniga bir tekis o'sadi, shuning uchun u o'zining yumaloq shaklini saqlab qoladi. Bolalikning birinchi davrida buyrakning uzunligi 7,9 sm, kengligi uchlarida 5 sm, og'irligi 56 g bo'lsa, o'smirlarda uzunligi 10,7 sm, kengligi 5,3 sm, og'irligi 120 g ga yetadi. Buyrakning o'sishi asosan bola hayotining birinchi yili, 5-9 yoshlar va 16-19 yoshlarda po'stloq moddasi o'sishi hisobiga bo'ladi. Bu davrlarda po'stloq modda qalinligi 4marta, mag'iz moddasi esa faqat 2marta kattalashadi. Yog' pardasi bolalikning birinchi davrida paydo bo'lib, 7 yoshda yaxshi bilinadi. Fibroz pardasi 5 yoshda yaxshi bilinib, 10-14 yoshlarda kattalarnikiga o'xshab qoladi. Yoshga qarab buyrakning joylashishi ham o'zgaradi. Umurtqalar tez o'sgani uchun birinchi yilning oxirida uning yuqori uchi XII umurtqa tanasining o'rtasida bo'lsa, pastki uchi yarim umurtqa yuqori joylashadi. 7 yoshdan so'ng buyrakning umurtqa pog'onasiga nisbati kattalarnikiga o'xshab qoladi. Yangi tug'ilgan bola buyrak jomi keng, ampula shaklida bo'lib, ko'pincha buyrak tashqarisida joylashadi. U 3 yoshlarda buyrak to'qimasi ichiga kiradi.

Tadqiqot maqsadi: Buyrak anatomiyasi va topografiyasini chuqur o'rganish va bu bilimlarni amaliyotda qo'llash va buyrak jarrohlikida yo'l qo'yiladigan xatolarni kamaytirish.

Buyrak arteriyalarining tug'ma o'zgarishlari.

Buyrak arteriyalarining tug'ma o'zgarishlari. Ularni soni, joylashish o'rni, shakli va arteriya tarmoqlari tuzilishi anomaliyalariga bo'lish mumkin. Arteriyalar soni anomaliyalari orasida qo'shimcha buyrak arteriyasi eng katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u asosiylariga nisbatan o'lchami kichikligi bilan farq qilib, buyrakning yuqori yoki pastki segmentiga yo'naladi, qo'shaloq buyrak arteriyasida buyrak kalibri bo'yicha bir xil kattalikdagi tomirlardan qon

bilan ta'minlanadi, ko'p arteriyalar esa taqasimon buyrak yoki har xil turdagi buyrak distopiyalari uchun xosdir.

Qo'shimcha qo'shaloq buyrak arteriyalari siydik yo'llarining yuqori bo'limlarini, ko'pincha siydik nayini kesib o'tib, buyrakdan siydik oqimi buzilishiga, uning gidronefrotik transformatsiyasiga sabab bo'lishi mumkin. Taqasimon buyrak yoki distopiyalangan buyrakka qilinadigan operatsiyalar vaqtida buyrakda ko'p arteriyalar bo'lishini e'tiborga olish lozim.


Qo'shimcha qo'shaloq buyrak arteriyalari siydik yo'llarining yuqori bo'limlarini, ko'pincha siydik nayini kesib o'tib, buyrakdan siydik oqimi buzilishiga, uning gidronefrotik transformatsiyasiga sabab bo'lishi mumkin. Taqasimon buyrak yoki distopiyalangan buyrakka qilinadigan operatsiyalar vaqtida buyrakda ko'p arteriyalar bo'lishini e'tiborga olish lozim.

Arteriya tarmoqlarining shakli va tuzilishi anomaliyalariga quyidagilar kiradi: tizzasimon buyrak arteriyasi; odatda, asosiy buyrak arteriyasida va uning tarmoqlarida, ba'zan qo'shimcha arterial tomirlarda joylashadigan buyrak arteriyalarining anevrizmalari (bir tomonlama va ba'zida ikki tomonlama); buyrak arteriyasining devorida fibroz mushak to'qimasining ortiqcha rivojlanishi oqibatida buyrak arteriyasining fibromuskul torayishi kelib chiqadi

Qo'shimcha qo'shaloq buyrak arteriyalari siydik yo'llarining yuqori bo'limlarini, ko'pincha siydik nayini kesib o'tib, buyrakdan siydik oqimi buzilishiga, uning gidronefrotik transformatsiyasiga sabab bo'lishi mumkin. Taqasimon buyrak yoki distopiyalangan buyrakka qilinadigan operatsiyalar vaqtida buyrakda ko'p arteriyalar bo'lishini e'tiborga olish lozim.

Buyraklar arterial tomirlari tug'ma o'zgarishlarining har xil turlarini tashxislash va davolash to'g'risida buyrakning nefrogen arterial va venoz gipertenziyasiga bag'ishlangan boblarda fikr yuritiladi.

Buyrak venalarining tug'ma o'zgarishlari



Arteriya tarmoqlarining shakli va tuzilishi anomaliyalariga quyidagilar kiradi: tizzasimon buyrak arteriyasi; odatda, asosiy buyrak arteriyasida va uning tarmoqlarida, ba'zan qo'shimcha arterial tomirlarda joylashadigan buyrak arteriyalarining anevrizmalari (bir tomonlama va ba'zida ikki tomonlama); buyrak arteriyasining devorida fibroz mushak to'qimasining ortiqcha rivojlanishi oqibatida buyrak arteriyasining fibromuskul torayishi kelib chiqadi. Fibromuskul torayish bir va ikki tomonlama bo'lishi mumkin, u arteriyaning o'rta uchdan birida joylashadi, ba'zan qo'shimcha buyrak arteriyasini zararlaydi (ko'pincha ayollarda kuzatiladi). Bunday turdagi buyrak arteriya tomirlarining tug'ma o'zgarishlari ko'pincha buyrakning qon bilan ta'minlanishi buzilishining sababi va vazorenal arterial

gipertenziyaning etiologik omili bo'ladi. Buyrak arteriyasining anevrizmasi klinik tomondan buyrakdan qon ketishi bilan namoyon bo'lishi ham mumkin.

BUYRAK NEFROPTOZI

Buyrak nefroptoz a'zoning patologik harakatchanligi — uning o'rnini vertikal holatda 2 sm, gorizontal holatda 3 sm dan ko'proqqa siljishi bilan tavsiflanadi.

BUYRAK POLIKISTOZI

Buyrak polikistoz a'zolarining tug'ma anomaliyalariga mansub bo'lib, ularda ko'plab kistalar hosil bo'lishi bilan tavsiflanadi. Patologik jarayonga har doim ikkala buyrak ham jalb qilinadi.


BUYRAK DISTOPIYASI

Buyrak distopiyasi — bu buyrak joylashuvining buzilishidir. Ushbu anomaliya rivojlanishning tug'ma nuqsonlariga mansub. Buyraklar past joylashishi, chanoq bo'shlig'i, ko'krak qafasiga siljigan bo'lishi mumkin.

BUYRAKNING YOMON SIFATLI O'SMALARI

Buyraklarning yomon sifatli o'smalari — buyrak to'qimasining turfa xil yomon sifatli transformatsiyalarini birlashtiradigan kasalliklar guruhidir. Onkologik kasalliklarning umumiy massasi ichra buyrak saratoni 2-3% hollarda uchraydi. Ko'pincha kasallikdan 40 yoshdan oshgan kishilar aziyat chekishadi.


Buyrakning arterial va vena qon tomirlari o'rtasidagi anomaliyalarning oraliq holatini tug'ma arterio-venoz oqmasi egallaydi. U klinik tomondan arterial gipertenziya buyrakdan qon ketishi va yurak yetishmovchiligi bilan namoyon bo'lishi mumkin.



Buyrak venalarining tug'ma o'zgarishlari: ularning kelib chiqishi pastki kovak vena rivojlanishining buzilishi bilan yaqindan bog'lik. O'ng buyrak venasining anomaliyalari (ko'p venalar, gonad venaning o'ngda buyrak venaga quyilishi) kam uchraydi. Chunki, ko'rsatilgan vena embriogenez jarayonida ko'rinarli transformatsiyaga uchramaydi.

Chap buyrak venasining o'ngidan farqi embriologik jihatdan har xil tuzulmalardan tashkil topganligi uchun ko'pincha uning rivojlanishi buziladi: venoz halqa chap chetining ikki uchi saqlanadi (halqasimon chap buyrak venasi), faqat ventral tarmog'i regressiyaga uchraydi, dorsal tarmog'i esa qoladi, shunday qilib, chap buyrak venasi retroaortal joylashadi. Regressiya jarayonining buzilishi va sub – hamda suprakardial venoz tizimining o'nga siljishi natijasida xuddi chap buyrak venasining ekstrakaval quyilishidagiday anomaliya paydo bo'ladi.

Buyrak venalari sonining anomaliyalariga buyrakning qo'shimcha venasi va buyraklarning ko'p venalari kiradi. Bunday anomaliyalarning klinik ahamiyati shundan iboratki, qo'shimcha venaning o'zi bo'lmasa ham, shuningdek uning zararlanishi venografiyada aniqlanmasa ham, ko'p tarmoqlardan bittasining zararlanishi, buyrakning hamma venoz tizimida gemodinamikaning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.



Buyrak venalari sonining anomaliyalari

Buyrak rakida o'sma trombi venoz tarmoqlaridan faqat bittasi orqali tarqalishi mumkin va buyrak venografiyasi vaqtida intakt venoz tarmog'ining kontrastlanishi buyrakda blastomatoz jarayonning bosqichi to'g'risida noto'g'ri tushuncha tug'diradi, bu esa xavfli asoratlarni keltirib chiqaradi (nefrektomiya bajarilayotgan vaqtda o'sma trombining uzilib ketishi).

Buyrak venalarining shakli va joylashishi variantlari

Me'yorda chap gonad vena buyrak venasiga, o'ngda esa pastki kovak venaga quyiladi. Lekin 10% hollarda o'ng gonad vena o'ng buyrak venasiga yoki buyrakning qo'shimcha venalaridan bittasiga quyiladi. O'ng buyrak venasidan qon oqimi buzilganda (masalan, nefroptozda yoki o'ng buyrak venaning stenoziga olib keluvchi boshqa zararlanishlarda) gonad venalarning anomal quyilishi simptomatik varikotsele paydo bo'lishi uchun anatomik asos bo'lishi mumkin

Xulosa: Buyrak jarroxligida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan shifokorning yatrogenetik xatolarini kamaytirishga asoslangan buyrak anatomiyasi va topografiyasiga asoslangan yig'ma materiallar sonini ko'paytirish va o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash. Postnatal rivojlanishda buyraklarda kelib chiqadigan anomaliyalar va perinatal halatlarda embrionalda uchrashi mumkin bo'lgan anomaliyalarni oldini olish yoki tug'ulishdan keying davrlardakasallangan buyraklarga diagnostika qilish terapiya muolajalarini olib boorish ko'zda tutilgan. Buyrak ish funksiyasi buzulgan holatda odam organizmida morfologik o'zgarishlarni diagnostik usullar yordamida aniqlash. Siydik ayirish tizimidagi kasalliklarda buyrak ishi funksiyasini buzulish darajasini o'rganish va tahlil qilishdan olingan hulosalarni statistik ma'lumotlar bilan taqqoslash kabi muammolarga yechim topishdan iborat bo'ldi.

References:

1. BOLALARDA SIYDIK CHIQUYUV YO'LLARI TUG'MA RIVOJLANISH NUQSONLARI (2020-yil Andijon)

2. Ультразвуковая диагностика аномалий органов мочевыделительной системы (2018 Москва)
3. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalri uchun darslik - (2018-yil Andijon)
4. Buyraklaringizni sog'lom saqlang. Milliy Sog'liqni saqlash institutlari. 2013 yil mart (<http://newsinhealth.nih.gov/issue/mar2013/feature1>)
5. Buyraklar va ularning qanday ishlashi. Milliy diabet va oshqozon va buyrak kasalliklari instituti (NIDDK), Milliy Sog'liqni saqlash institutlari (NIH). 23 mart 2012 yil yangilandi (<http://kidney.niddk.nih.gov/KUDises/pubs/yourkidneys/index.aspx>)
6. SEER ta'lim modullari, buyraklar. AQSh Milliy Sog'liqni Saqlash Instituti, Respublika Saratonlar Instituti. 19 iyun 2013 yilda ishga tushirilgan (<http://training.seer.cancer.gov/>)